

Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida amaliy seminar o'tkazildi

Joriy yil 3-oktabr kuni O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalari mavzusiga bag'ishlangan amaliy seminar o'tkazdi.

"O'zbekiston respublika tovar xom-ashyo birjasi" AJ Komplayens nazorat va axborot xavfsizligi Bosh boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan yig'ilishda birjaning markaziy apparat xodimlari bilan birga Zoom videokonferensiya dasturi orqali hududiy filiallar xodimlari ham ishtirok etdilar.

O'zbekistonning yangilangan siyosati jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini oliy darajaga ko'tarish, zamonaviy va samarali davlat boshqaruvini joriy etish, davlat xizmatida korrupsiyaviy holatlarning har qanday ko'rinishlariga qat'iy murossasizlik madaniyatini shakllantirish maqsadida tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining mas'ul xodimi Mamanov Sardorjon Sobirovich "Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida davlat siyosati va uning ustuvor yo'nalishlari, manfaatlar to'qnashuvi hamda odob-axloq qoidalari" mavzusida ma'ruza qildi.

Ta'kidlanganidek, 2016-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida korrupsiyani oldini olishga qaratilgan 6 ta Qonun, 6 ta Prezident farmoni, 7 ta Prezident qarorlarini qabul qilinishi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish, unga barham berish uchun zarur sharoitlar yaratib berdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ijobiy yutuqlarga erishgan rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiya ko'rinishlarining oqibati bilan kurashish emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabablarini bartaraf etish o'z samarasini beradi.

Shu bois, korrupsiyani oldini olish, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablarni chuqur tahlil qilish, korrupsion xavf-xatarlarni baholash, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplayens) tizimini yaratish, davlat organlarining ochiqligi va hisobdorligini oshirish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishni taqozo etadi.

Tadbir davomida, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida erishilgan yutuqlar va kutilayotgan o'zgarishlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

Seminar yakunida birja xodimlari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.